

Biz

G'o'shtlari yomg'ir tomchilari kabi havoda uchib, bo'laklarga bo'linib sochilib ketgan, biz, ushbu sivilizatsiyalashgan dunyoning barcha erkaklari ayollari va bolalaridan chin dildan uzr so'raymiz. Zero, biz ularning tinch va osuda xonodolarida, ruxsatsiz, kutilmaganda paydo bo'lib qoldik. Kutilmaganda ularning qordek oppoq xotiralariga o'zimizning uzilib ketgan tana a'zolarimiz bilan muhrlanib qolganimiz uchun uzr so'raymiz. Ularning ko'z o'ngida "butun va normal inson" qiyofasini buzganimiz uchun, qonimiz va tana qoldiqlarimizdan bo'lak yalang'och holda axborotnomalar, internet sahifalari va matbuot nashrlariga odobsizlarcha to'satdan sakrab chiqqanimiz uchun uzr so'raymiz.

Daxshatga tushishdan qo'rqib, jarohatlarimizga tik qarashga jurati yetmaganlardan va televizorda bizning yangi chiqib kelgan suratlarimizni ko'rib qolib, kechki ovqatini ohirigacha yeyolmay qolganlardan uzr so'raymiz.

Bizni ekranlarda ko'rsatishdan avval bo'laklarimizni yig'ib, qayta tiklashga urinishmagani, bizni bor holimizcha, hechqanday bezaklarsiz ko'rishga majbur bo'lganingiz va bu sababdan chekkan iztiroblaringiz uchun uzr so'raymiz. Shuningdek bizni parcha-parcha qilishga majbur bo'lib samalyot va tanklardagi tugmalarni bosib zahmat chekib qolgan Isroil askarlaridan ham uzr so'raymiz. Ular snaryad va bo'mbalarini bizning yumshoq boshlarimizga to'g'ri yo'naltirganlaridan so'ng naqadar hunuk ko'rinishga kelganimiz uchun uzr so'raymiz. Jirkanch tana bo'laklariga aylanganimiz tufayli va endi ular har gal uxlashga uringanlarida ta'qib qilayotganimiz uchun, ularning qaytadan avvalgidek inson bo'lish ilinjida psixiatriya klinikalarida o'tkazadigan soatlari uchun ham uzr so'raymiz.

Biz, siz ekranlarda va matbuotda ko'rgan narsalarmiz. Agar siz bu bo'laklarni xuddi jumboq kabi birlashtirishga urinsangiz, ko'z o'ngingizda shunday aniq-ravshan manzara paydo bo'ladiki, siz endi hech narsa qila olmay qolasiz.

Ghayath Almadhoun

Translated by Nafisa Abdusattarova